V.V. BARTOLDNING TURKISTON O‘LKASI TARIXI BILAN BOG‘LIQ ILMIY FAOLIYATI

Yuldasheva Xilola Muzaffar qizi

Annotatsiya:*Turkiston tarixi, uning boy madaniy-ma’naviyhayoti, boy merosimiz nafaqat mahalliy olimlar, balki vaqt o‘tishi bilan, G‘arb va Sharq olimlari tomonidan ham katta qiziqish bilan o‘rganildi. Ana shunday olimlardan biri rus akademigi Bartold Vasiliy Vladimirovichdir. Ushbu maqolada esa, aynan sharqshunos, turkolog, islomshunos olim V.V. Bartoldning hayoti, uning Turkiston tarixi bilan bog‘liq ilmiy faoliyati, ya’ni uning Turkistonga qilgan sayohatlari, olib borgan izlanishlari, turkiy xalqlar tarixi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari muhokama qilinib, uning tarix faniga qo‘shgan hissasi haqidagi ma’lumotlar keltirib o‘tildi.*

Kalit so‘zlar: *Turkiston o’lkasi,Bartold Vasiliy Vladimirovichdir, tadqiqot, ilmiy to’garak, gimnaziya, sayohat, qo’lyozma asarlar.*

Annotation: *The history of Turkestan, its rich cultural and spiritual life, our rich heritage were studied with great interest not only by local scientists, but also, over time, by Western and Eastern scientists.One such scientist is the Russian academician Bartold Vasily Vladimirovich. In this article, it is the Orientalist, turkologist, Islamic scholar V.V.Bartold's life, his scientific work related to the history of Turkestan, i.e. his travels to Turkestan, his research, his research on the history of Turkic peoples, were discussed, and his contributions to the science of history were cited.*

Keywords: *Turkestan country, Bartold is Vasily Vladimirovich, Research, Scientific circle, gymnasium, travel, manuscript works.*

Kirish

Yurtimiz tarixiga nazar tashlansa, jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri, Turon, Movarounnahr, Chig‘atoy ulusi, Turkiston deb turli asrlarda turfa nomlar bilan atalgan. O‘tmish manbalarini o‘qib o‘rganar ekanmiz, Turkiston tarixi, uning madaniy-ma’naviy hayoti naqadar boy merosimizni nafaqat mahalliy olimu fuzalolar, balki zamon zayli bilan yurtimizda shakllangan sobiq tuzum olimlari ham katta qiziqish bilan o‘rganib, hattoki unga umrlarini baxshida qilganlar. Shunday olimlardan biri Akademik Bartold Vasiliy Vladimirovich (1869-1930) - sharqshunos, turkolog, islomshunos, rus sharqshunoslik maktabining asoschilaridan biridir.

Vasiliy Vladimirovich Bartold 1869-yil 15-noyabrda Sankt-Pererburg shahrida ruslashib ketgan nemis oilasida tug‘ilgan. Otasining ajdodlari Boltiqbo‘yi o‘lkasidan, ona tomondan ajdodlari Rossiyaga Germaniyaning Gamburg shahridan ko‘chib kelgan. Otasi Vladimir Bartold birja makleri bo‘lib faoliyat yuritgan. V.V.Bartoldning bolalik va o‘smirlik yillari oiladagi moddiy ta’minotning yaxshiligi tufayli gumanitar fanlarning turli yo‘nalishlari bo‘yicha malakali bilim olish bilan o‘tgan. Dastlab u G‘arbiy Yevropa xalqlarining qadimgi mumtoz tillarini o‘rgangan va maktab davridayoq, kelgusida tarixchi mutaxassis bo‘lishga ahd qilgan.

1987-yilda V.V.Bartold Sankt-Pererburg shahridagi 8-sonli gimnaziyani oltin medal bilan bitiradi. Bu paytda uning oldida mutaxassislik yo‘nalishini belgilovchi ikkita yo‘l bor edi. Birinchisi - antik davr tarixi bo‘yicha tahsil olish, ikkinchisi - Yaqin Sharq va O‘rta Sharq mamlakatlarining tarixi bo‘yicha shug‘ullanish. Muayyan ikkilanishlardan so‘ng Bartold 1987-yil Sankt-Peterburg universitetining sharq tillari fakultetiga o‘qishga kiradi. Universitetda o‘qib yurgan davridayoq V.V Bartold ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullana boshlagan. Uning o‘sha paytda yozgan “O‘rta Osiyodagi xristianlik to‘g‘risida”

(“ОхристианствевСреднейАзии”) nomli risolasi Sankt-Peterburg universiteti sharqshunoslik fakultetining kumush medali bilan taqdirlanadi.

1891-yilda universitet tahsilini tugatgan V.V Bartold, ustozi V.R. Rozenning maslahati bilan 1891-1892-yillarda malakasini oshirish uchun, o‘z hisobidan Finlyandiya, Germaniya, Shveysariya, Italiya, Avstriya, Vengriya va Krakovga sayohatga chiqadi. Sayohat davrida u Gall uneversitetida taniqli islomshunos, professor Avgust Myuller (1848-1892), Strasburg universitetida taniqli arabshunos, akademik Teodor Nyoldeke (1836-1930) ma’ruzalarini eshitadi. Rossiyaga qaytgan V.V Bartold 1892-yil Sankt-Peterburg universiteti sharqshunoslik fakultetining “Sharq tarixi”kafedrasiga ishga tayinlanadi.

Asosiy qism

O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekistonning qadimgi va o‘rta asrlardagi tarixi, ijtimoiy iqtisodiy va madaniy hayotiga oid “Mo‘g‘ullar istilosi davrida Turkiston” (1900-y.), “Orol dengizi va Amudaryoning quyi oqimidagi yerlarning qadim zamonlardan to XVII asrgacha bo‘lgan ahvoli haqida ma’lumotlar” (1902-y.), “Turkistonning sug‘orilish ishlari tarixiga oid” (1914-y.), “Ulug‘bek va uning davri” (1918-y.), “O‘rta Osiyoda qadimdan to ruslar kelguniga qadar o‘tgan davrda paxtachilik” (1924-y.), “Turkistonning madaniy hayoti” (1927-y.) kabi o‘nlab ilmiy va amaliy qiymatga ega asarlar yozib qoldirgan ulkan sharqshunos olim, akademik Vasiliy Vladimirovich Bartold tom ma’noda Vatanimiz tarixining bilimdoni edi. Olim tomonidan 685 asarning 320 nafarida Turkistonning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti tahlil qilinadi. V.V.Bartold Respublikamizda, xususan, uning poytaxti Toshkentda ilmiy, ilmiy pedagogik va o‘lkashunoslik muassasalarini ta’sis etish va ularning faoliyatini rivojlantirish ishiga ham munosib hissa qo‘shdi.

Olimning hayoti va ilmiy faoliyatining katta davri O‘zbekiston, xususan, Toshkent shahri bilan bog‘liq. U faqat 1893-1928-yillar orasida Toshkentga yetti

marta kelib ketdi va har bir safari katta, ko‘p hollarda yechimini kutib yotgan ilmiy va ilmiy-tashkiliy masalalar bilan bog‘liq bo‘lgan.

Olim Toshkentga dastlab, 1893-1894-yillarda Rossiya Fanlar akademiyasi va Sankt-Peterburg universiteti sharq tillari fakultetining yo‘llanmasi bilan Turkistonga birinchi ilmiy safarini amalga oshiradi. Ushbu safardan kuzatilgan maqsad, olimning o‘z so‘zlari bilan aytadigan bo‘lsak, “O‘lkaning o‘tmish tarixiga oid mavjud yozma axborotlarga qo‘shimcha tarzida, o‘sha yerlarda qadimda istiqomat qilgan xalqning ma’lumotlari asosida tarixiy obidalar qoldiqlari haqidagi ma’lumotlarni to‘plash va imkoni boricha qadimiy shaharlar va qal’alarning qoldiqlarini tavsif etish”dan iborat bo‘lgan.

Sharqshunos olim o‘zining Turkistondagi birinchi ma’ruzasini 1893-yil 11-dekabrda aniq fanlar, antropologiya va etnografiya ishqibozlari jamiyati – Turkiston bo‘limi majlisida qiladi. Shundan so‘ng esa, V.V.Bartold Turkistonda birinchi ilmiy-o‘lkashunoslik to‘garagi – “Turkistonlik havaskor arxeologlarning to‘garagi”ni ta’sis etishda faol ishtirok etadi. Bu ilmiy to‘garak 1895-yilning 11-dekabridan o‘z faoliyatini boshlab, 1917-yilga qadar ishlab turgan. Dastlab, ushbu ilmiy to‘garakning 107 nafar a’zosi bo‘lib, ular orasida tashkilotchilardan V.V.Bartold, D.M.Levshin, N.S.Likoshin, K.V.Aristov, V.F.Oshaninlar o‘z faoliyatini olib borganlar. Biroq, ushbu to‘garak Chor hukumati tomonidan hech qanaqa mablag‘ bilan ta’minlanmagan. Tez orada V.V.Bartold rahbarligidagi ushbu to‘garak tarixchi va arxeologlarning ilmiy markaziga aylanadi. V.V.Bartold bu va boshqa to‘garaklarning ishiga, umuman ilmiy ishga mahalliy kadrlarni jalb etish, ularning bilim va tajribalaridan foydalanishga ham alohida e’tibor bergan.

V.V.Bartold O‘rta Osiyo, xususan, Toshkent, Samarqand va Shahrisabzdagi tarixiy obidalarini qo‘riqlash va tiklash ishlari bilan ham shug‘ullangan. U 1920-yilda Buxoro Amirligi M.Frunze boshchiligidagi “qizil” qo‘shinlar tarafidan tugatilgandan keyin ko‘p o‘tmay, Turkiston Markaziy arxiv boshqarmasi

tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiyada ishtirok etadi.Uning ishtirokida Buxorodagi tarixiy obidalar, shuningdek, amir arxivi, qo‘shbegi arxivi, ko‘plab nodir qo‘lyozmalar, jami 380 nafar qimmatli qo‘lyozma talon-tarojdan asrab qolinadi.

Darhaqiqat, V.V. Bartoldning ilmiy qiziqishlari qarovi juda keng bo‘lib, asarlarida Yaqin va O‘rta Sharq va ayniqsa Markaziy Osiyoning o‘rta asrlar tarixini, islom tarixini, Arab xalifaligi tarixini, Eron va Afg‘oniston tarixi va filologiyasini, tarixiy geografiyasini, Xitoy va Kavkaz orti tarixini, turkiy va mo‘g‘ul xalqlari filologiyasi va etnografiyasi, musulmon epigrafiya va numizmatikasini, manbashunoslik, rus va jahon sharqshunosligini qamrab olgan.

Olim yoshligidan kasalmand (buyragi) bo‘lganligiga qaramasdan, ilm-fan sohasida barakali mehnat qilib, ulkan ilmiy meros qoldirgan. Bor yo‘g‘i 61 yillik umri davomida faktik materiallarga boy, ilmiy asoslangan va puxta asarlar yaratdiki, hozirgi kunda ham tarixchi olimlar, geograf va filologlar uning ilmiy tadqiqotlari natijalari va xulosalaridan foydalanib kelmoqdalar.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, Vatanimiz tarixi bilimdoni, fidoiy olim V.V.Bartold qoldirgan ilmiy merosni o‘rganish, asarlarida keltirilgan ilmiy xulosalarini tanqidiy ruhda, holisona tadqiq qilish yuzasidan ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, V.V.Bartoldning Toshkent va O‘zbekistonning uzoq o‘tmishi tarixi ustida qilgan mehnati naqadar kattaligini his qilib, undan hamisha minnatdor bo‘lishimiz va kelajak avlodga yetkazishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekistonning yangi tarixi (Birinchi kitob). Turkiston Chor Rossiyasi Mustamlakachiligi davrida. Toshkent; “Sharq” nashriyoti 2000.

2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. -T.: O‘qituvchi, 1994 yil.

3. Saidqulov T.S.O‘rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar (1-qism). T.: O‘qituvchi, 1993 y.

4. УмняковИ.И. АннотированнаябиблиографиятрудовакадемикаВ.В.Бартолда.СамГУ, Новаясерия, випуск 136, Самарканд, 1964 г., Стр.33

5. БартолдВ.В.Улугбекиегоэпоха. ИИтом, 2-част., М., 1964 г. Стр -63-64.

6. БартолдВ.В. МирАлишериполитическойжизн. Сочинение. ИИтом., 2-част. М.: Наука, 1964 г. Стр. 199.

7. СагдиевА.ИсторическаянаукапрошлогоСреднейАзиивТуркестаневХИХвеке. Т.: Наука, 1960 г., Стр. 72

8. БартолдВ.В. “Туркестанвэпохумонголскогонашествия”. Соч. Том.1, М., 1968.